

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XAYITOV AKMAL XOLBOYEVICH

**BO‘SH VAQT – TALABA-YOSHLAR MA‘NAVIYATINI
YUKSALTIRISH OMILI SIFATIDA**

(ijtimoiy-falsafiy tahlil)

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Sontents of Dissertation Abstrast of the Dostor of Philosophy (PhD) on
Phlosophical Ssiences**

Хайитов Акмал Холбойевич

**Bo'sh vaqt – talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish omili sifatida
(ijtimoiy-falsafiy tahlil) 5**

Хайитов Акмал Холбойевич

**Свободное время как фактор повышения морального духа студенческой
молодежи (Общественно философский анализ) 23**

Хайитов Акмал Холбойевич

**Free time as a factor of raising the morale of students and youth (social-
philosophical analysis) 45**

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 50

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XAYITOV AKMAL XOLBOYEVICH

**BO‘SH VAQT – TALABA-YOSHLAR MA‘NAVIYATINI
YUKSALTIRISH OMILI SIFATIDA**

(ijtimoiy-falsafiy tahlil)

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fal574 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash web-sahifasida (ik-falsafa.@nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qoraboyev Usmon Hosilovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Aliyev Bekdavlal Aliyevich
falsafa fanlari doktori, professor

Norqulov Dustmurod Toshpo‘latovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.f.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zbekiston Milliy universiteti Madaniyat saroyi. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zbekiston Milliy universiteti Madaniyat saroyi. Tel.: (99871) 246-02-24;

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi
(2024-yil “___” _____dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi)

I.S. Saifnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

G.M. Shadimetova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari doktori (PhD),

O‘.G‘. Tilavov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc)

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashuv sharoitida jamiyatning alohida ijtimoiy-demografik guruhi bo'lgan yoshlar qatlamining ularning bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlash masalasi, jumladan bo'sh vaqtdan foydalanish jarayonida muammolar kuzatilmoqda. Bu esa, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishning butun jahon xalqlari hayotida muhim hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyatini aniqlashni dolzarb vazifa sifatida namoyon qilmoqda. Talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini ratsional tashkil qilishda o'ziga xos milliy qadriyatlar va an'analarga amal qilish hamda yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan g'oyalar ilgari surilmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari ilmiy markazlari va universitetlarida bo'sh vaqtdan foydalanish masalasida keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishning tarixiy rivojlanish bosqichlari, bo'sh vaqt menejmenti, tashkilotlarda bo'sh vaqtdan samarali foydalanish, sog'lom turmush tarzining bo'sh vaqt bilan bog'liqligi, didaktik jarayonlarda bo'sh vaqtning ahamiyati, bo'sh vaqtni samarali tashkil etish orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, sport bilan shug'ullanish, odatiy holatdagi yashash tarzini o'zgartirish, hordiq chiqarish va turizmning rivojlanishida bo'sh vaqtning o'rni, mutolaa madaniyatini shakllantirish kabi masalalarni tadqiq etish zaruriyatini ilgari surmoqda.

Yangi O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Chunki, mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 19 milliondan ortiq yoki aholining 55 foizini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning «Yangi O'zbekiston strategiyasi» asarida ta'kidlanganidek, «Biz o'z oldimizga jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish, Yangi O'zbekistonni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida qo'ydik. Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning o'qishi, mehnat qilishi, bilim olishi, bo'sh vaqtda qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqdamiz. Zero, butun xalqimiz qatori yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlaridir!»¹ Shuning uchun ham, talaba-yoshlar bo'sh vaqt byudjetidan samarali foydalanishda, yoshlarni ma'naviy yuksaltirish borasidagi milliy ma'naviy merosimizga tayanish, yoshlar muhitidagi salbiy holatlarning oldini olish, yoshlarning bo'sh vaqtini tashkil etishdagi ijtimoiy-falsafiy yo'nalganlik tendensiyalarini falsafiy tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son «Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2023-yil 26-apreldagi PF-61-son «Yoshlarning bandligiga ko'maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari, 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston» 2021. - 44-54 b.

tadbirlari to‘g‘risida», 2023-yil 7-apreldagi PQ-114-son «Ma‘muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-son «Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur sohaga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy – ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yangi O‘zbekistonni barpo etish, xususan, yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishini ta‘minlash borasida bildirgan konseptual g‘oyalari tadqiqotimizning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi.

Shaxsning ma‘naviy rivojlanishi, uning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlarni ijtimoiylashtirishda bo‘sh vaqt omilining roli, qadimgi g‘arb faylasuflari Platon va Aristotel, sharq allomalari Abu Homid G‘ozzoliy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Bakr Ar-Rozi, Abu Ali ibn Sino² tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Ta‘kidlash joizki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o‘zbek jadidlari ham o‘zbek xalqi turmush tarzi, hordiq hodisasiga mustabid tuzumdan xalos bo‘lish omili sifatida qaraganlar. Jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat³ kabi jadidchilik harakatining buyuk namoyondalari dam olish va hordiq davrida har bir inson o‘zini-o‘zi rivojlantirishi, yuz berayotgan jarayonlarni anglab yetishini ta‘kidlaganlar.

Xorijiy olimlar O.Kont, G.Spenser, V.Pareto, R.Darendorf, E.Dyurkgeym⁴ bo‘sh vaqt insonni intellektual va ma‘naviy rivojlantirishdan iborat ekanligini

² Платон. Сочинения в трех томах. Т. 2. –Москва: Мысль, 1970. С.-608.; Аристотель. Соченения в 4-х томах.Т.2. –Москва: Мысль,1978. С.-704.; Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: Xalq merosi, 1993. -83 b.; Abu Homid G‘azzoliy. Mukoshafat–ul Qulub (Qalblar kashfiyoti) Toshkent: Adolat, 2002. -98 b.; Abu Rayhon Beruniy. Asarlar. –Toshkent: «G‘afur G‘ulom». 1996. -275 b.; Абу Бакр Ар-Рази. Духовная медицина. - Москва: 1992 г. С.-64.; Ibn Sino. Tib qonunlari. –Toshkent:1978. -154 b.

³ Махмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: «Маънавият», 2006. -280 б.; Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2-жилд: –Тошкент: «Маънавият», 2006. –240 б.; Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5-жилд: Илмий рисоалар. Тошкент: «Маънавият», 2010. -280 б.

⁴ Конт О. Курс положительной философии. В 6 т. -Т.1 Санкт-Петербург: «Посредник», 1900. –С. -163.; Дюркгей Э. Моральное воспитание / пер. с фр., вступ. ст., примеч.. Гофмана А.Б; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». — Москва: Изд. дом Высшей школы экономики, 2021. – С. 456.; Дарендорф Р. Гражданская ответственность интеллектуалов: против нового страха перед просвещением//Полис (Политические исследования). — 1997. — № 6.; Спенсер Г. Основания социологии. Западноевропейская социология. –Москва: 1996. - С. -505.

ta'kidlagan bo'lsalar, T.Parsons, R.Merton va D.Xamermesh vaqt byudjetini, Germaniyalik J.Xabermas va N.Luman⁵ vaqtni inson va jamiyat hayotidagi o'rnini tadqiq etganligini I.V.Sarkisova, A.V.Babello, D.Yu.Chumovatov, A.A.Vishnyakova⁶ tomonidan ham mavzuga oid bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Ularning ilmiy-tadqiqot ishlarida talaba-yoshlar bo'sh vaqtining o'ziga xos xususiyatlari, bo'sh vaqt madaniyati va uni boshqarish, bo'sh vaqtning oliy ta'lim muassasalari madaniy-tarbiyaviy muhitida shaxs rivojlanishining omili sifatida namoyon bo'lish xususiyatlari singari masalalar tahlil qilingan.

Keyingi yillarda mamlakatimizda nashr etilgan bir qator ilmiy adabiyotlarda bo'sh vaqt muammosi alohida tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilinmagan bo'lsada, uning ayrim jihatlariga nisbatan e'tibor berilganligini kuzatish mumkin. Bular qatoriga M.A.Abdullayev, F.R.Abduraxmonov, O'.M.Abilov, A.M.Jalolov, G.J.To'lenova, R.Z.Jumayev, T.A.Jurayev, U.H.Qoraboyev, A.Ochildiyev, Q.Nazarov, E.Umarov, O'.J.Haydarov, I.R. Xo'jamurodov, M.H. Xolmatova, I.Ergashyev va boshqa ko'pgina faylasuf olimlarning kitoblari, risolalari, ilmiy-tadqiqotlari kiradi.

C.Xolmirzayev, M.A.Abdualimova, B.X.Karimov, M.K.Isomov, B.J. Saidov, D.T. Norqulov, O. Nishonova, R.Sh. Rustamova, J.S. Toshmatova, Z.K.Ismoilova, F.Rustamov⁷ kabi olimlarning dissertatsiyalarida bo'sh vaqt insonning ijtimoiy va

⁵ Парсонс Т. Социальная система. — Москва: Академический проект, 2018. — 529 с.; Роберт Мертон о структурном анализе // Социальные и гуманитарные науки [Реф. журнал]. — Сер. 11. Социология. — 1993. — № 1. — С. 30—36.; Daniel Hamermesh. Spending Time: The Most Valuable Resource, March 2019 <https://knowledge.wharton.upenn.edu/article/hamermesh-spending-tim>.

⁶ Вишнякова А.А. «Свободное время молодёжи крупного города и основные формы его использования на современных условиях (на примере? Иркутска) специальность -22,00,04-социальная структура, социальные на соискание ученой степени кандидата социологических наук. Улан-Удэ» 2014. — С. -156.; Чумоватов Д.Ю. «Свободное время как условие развития личности военнослужащего Вооруженных сил Российской Федерация (Социально-философский анализ) Специальность - 09.00.01. — социальная философия. Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук». Москва: 2005. — С. -151.; Саркисова И.В. Свободное время и духовное развитие молодежи (на материалах Туркменистана): автореферат дис. ... кандидата социологических наук: 22.00.04.- Санкт-Петербург: 1992. — С. -18.; Бабелло А.В. «Особенности досуга студенческой молодежи регионального ВУЗа (на примере Забайкальского государственного университета)» диссертация ... кандидата Социологических наук: 22.00.04/Бабелло А.В [Место защиты: ФГБОУ ВО «Бурятский государственный университет»], 2018. — С. -172.

⁷ Рустамов Ф. «Ўзбекистонда бўш вақт ва ҳордиқ социологияси эволюцияси» Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) олиш учун тайёрлаган автореферати. —Тошкент: 2023. -23 б.; Исмоилова З.К. Маънавий —ахлоқий тарбиянинг назарий ва экспериментал-методик асослари Пед. фан.докт.илмий даражасини олиш учун илмий маъруза шаклидаги дис. —Тошкент: 2006. — 345 б.; Тошматова Ж.С. Маънавий-маърифий ишларда талаба-ёшлар шахсини тарбиялашнинг педагогик хусусиятлари. Пед. фан. номз. дис. Автореф. — Тошкент: 2001. -19 б.; Рустамова Р.Ш. Талаба ёшларни маънавий ахлоқий тарбиялашда маданий-маърифий тадбирлар самарадорлигини ошириш омиллари. Пед. фан. номз.дис. — Тошкент: 2007. -156 б.; Нишонова О. Ўзбек аёллари этномаданияти: негезиси, хусусиятлари, муаммолари (фалсафий —маданий ёндашув). Фалсафа фанлари номзоди дисс. Автореферати. —Тошкент: 2005. -21 б.; Норкулов Д.Т. «Вақт жамият маданий — маънавий равнақи омили: назария ва амалиёт». Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. —Тошкент: 2000. -242 б.; Саидов Б.Ж. Свободное время и его значение в жизни и деятельности современной молодежи. —Тошкент: 1996. -151 с.; Исомов М.К. Свободное время и развитие духовной культуры, молодежи. Диссертация на соискания ученой стпени кандидата философских наук. —Тошкент: 1994. —С.-115.; Каримов И. Маънавий, фалсафа ва ҳаёт. Нашр қилинган мақолалар тўплами. —Тошкент: Фан. 2001. -213 б.; Абдалимова М.А. Свободное время как объект фалсафиско-социологического анализа. Атореферат дисс. канд. фалос. наук, —Тошкент: 1988. —

aqliy qobiliyatlarini, maqsadga yo'naltirilgan ijodiy va aqliy imkoniyatlarini rivojlantiruvchi jarayon, yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirishga sarflanadigan vaqt sifatida o'rganilgan.

D.Norqulovning ilmiy-tadqiqot ishi jamiyat taraqqiyoti va vaqtning o'zaro bog'liqligi, munosabati, inson ma'naviy dunyosining vaqt omiliga ta'siri, vaqtdan oqilona foydalanishning jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotiga ta'siri muammolarini o'rganishga⁸ bag'ishlangan.

R.F.Rustamovning «O'zbekistonda bo'sh vaqt va hordiq sotsiologiyasi evolyutsiyasi» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishida «Jamiyat boyligi aholi turli tabaqalari vakillari mehnatining mevalari bilangina emas, balki ularning bo'sh vaqti miqdori va hordiq madaniyatining darajasi bilan o'lchanadi. Bo'sh vaqt inson kapitalini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi»⁹ deb yoritilgan bo'lsa-da biroq, bu borada talaba-yoshlar ma'naviyati obyekt sifatida yetarli darajada o'rganilmagani, bizni mazkur mavzuni ijtimoiy-falsafiy jihatdan ilmiy o'rganishga undadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarining falsafiy tahlili» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda bo'sh vaqt omilining o'rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talaba-yoshlarning alohida ijtimoiy-demografik guruh sifatidagi xususiyatlarini ochib berish;

talaba-yoshlar bo'sh vaqtining mohiyati, shakl-mazmuni, funksiyalari va tuzilishining o'ziga xosligini hozirgi zamon ilmiy-nazariy qarashlardan kelib chiqib tadqiq etish;

globallashuv sharoitida talaba-yoshlar bo'sh vaqti, ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatuvchi holatlar, shart-sharoitlar va omillarni aniqlash;

talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishning asosiy yo'nalishlarini asoslash, bo'sh vaqtni boshqarishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini talaba-yoshlar ma'naviyati tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini talaba-yoshlar ma'naviyati va bo'sh vaqtning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, mazkur jarayonda vujudga keladigan ijtimoiy-falsafiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimlilik, tizimli va qiyosiy tahlil, analiz va sintez, kuzatuv, so'rovnoma, intervyu kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

C.-16.; Холмирзаев С. Свободное время сельской молодёжи и вопросы его рауконального исполизования. Автореферат дисе. Канд. Филос. Наук. –Ташкент: 1972. –С.-286.

⁸ Норкулов Д.Т. «Вақт жамият мадания – маънавий равнақи омили: назария ва амалиёт». Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент: 2000. -242 б.

⁹ Рустамов Ф. «Ўзбекистонда бўш вақт ва ҳордиқ социологияси эволюцияси» Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) олиш учун тайёрлаган автореферати. –Тошкент: 2023. -23 б.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'sh vaqt xodisasining ijtimoiy mazmuni va qiymati, uni oqilona tashkil etishda inson, davlat va jamiyat hayotidagi rolining obyektiv jihatlari hamda shaxsning madaniyati, ma'naviy ehtiyojlari, ijodiy qobiliyatlari singari subyektiv omillarining sotsiomadaniy asoslari va shaxslararo muloqotni ta'minlashga erishish sog'lom tafakkur tarzini shakllantirishga ta'siri asoslangan;

talaba-yoshlarni ma'naviy, jismoniy va intellektual rivojlantiruvchi omillari sifatida bo'sh vaqtni yoshlar ma'naviy madaniyati bilan bog'liq prakseologik natijadorligi orqali inson (talaba) taraqqiyotini ta'minlashga, butun umr davomida uzluksiz rivojlanish holatini yuzaga keltirishi ochib berilgan;

talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda bo'sh vaqtdan foydalanishga qulay shart-sharoitlar yaratuvchi boshqarish usulidan foydalanishning globallashuv sharoitida vaqtdan unumli foydalanish pragmatik jihatdan hayot sifatini madaniy makonda oshirishga xizmat qilishi va psixologik, iqtisodiy samaradorligi asoslangan;

bo'sh vaqtdan unumli foydalanishda umuminsoniy madaniy qadriyatlar davomiyligining asosi sifatida ijtimoiy makon va vaqt ta'sirida shaxsning rivojlanishi aksiologik, strukturaviy, didaktik sabablarga ko'ra ijtimoiy tartibni qabul qilish va muloqot bog'liqligi falsafiy jihatdan globallashuv sharoitida ijtimoiy zaruriyat ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yoshlarning iqtidori va qobiliyatlarini maqsadli ro'yobga chiqarish negizida bo'sh vaqtni oqilona tashkil qilishni asoslovchi ijtimoiy-falsafiy munosabatlar tizimini pozitivlashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan.

talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda bo'sh vaqtdan foydalanishga qulay shart-sharoitlar yaratuvchi maxsus model, boshqarish usullari, yoshlarga oid davlat siyosati sohasida o'tkaziladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar va madaniy dam olishni tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar, talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda bo'sh vaqtni ratsional tashkil qilish muhim omil ekanligi, ularning hayot sifatini oshirish tendensiyalarini ishlab chiqishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, sotsiologik so'rovnomalarning talablar asosida o'tkazilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tganligi bilan izohlanadi, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-nazariy anjumanlar materiallarida, OAK ro'yxatidagi jurnallarda maqolalar nashr qilingani, dissertatsiya xulosasi, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda bayon etilgan mulohazalar, nazariy xulosalar va ishlab chiqilgan amaliy takliflar bo'sh vaqt omilining talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga ta'siri masalalarini ilmiy-metodologik, ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishga o'z hissasini qo'shadi. Dissertatsiyadagi

nazariy xulosalardan talaba-yoshlar muammolarini ilmiy tadqiq etishda hamda bo'sh vaqt omilining talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi rolini yanada kengroq o'rganishga oid ilmiy-amaliy konsepsiyalar ishlab chiqishda samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, undagi xulosa va tavsiyalardan oliy o'quv yurtlari faoliyatida, madaniy-ma'rifiy muassasalarda, yoshlar ijtimoiy harakati va uning qoshidagi yoshlar markazlari, yoshlar muammolarini o'rganish instituti, yoshlar masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat va nodavlat muassasalar va tashkilotlar, o'z-o'zini boshqarish organlari, xotin-qizlar qo'mitalari, kasaba uyushmalari ishlarida, ommaviy axborot vositalari tizimida, xususan, analitik teleko'rsatuvlar, radio eshittirishlar tayyorlashda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

O'zbekistonda bo'sh vaqt talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish omilini tadqiq etish borasida olingan ilmiy natijalar quyidagi faoliyatlarga tatbiq etilgan. Jumladan:

bo'sh vaqt xodisasining ijtimoiy mazmuni va qiymati, uni oqilona tashkil etishda inson, davlat va jamiyat hayotidagi rolining obyektiv jihatlari hamda shaxsning madaniyati, ma'naviy ehtiyojlari, ijodiy qobiliyatlari singari subyektiv omillarining sotsiomadaniy asoslari va shaxslararo muloqotni ta'minlashga erishish sog'lom tafakkur tarzini shakllantirishga ta'siri kabi ilmiy xulosalardan madaniyat muassasalari va havaskorlik san'atini rivojlantirish boshqarmasining yillik ish rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 17-apreldagi 05-12-15-2369-son ma'lumotnomasi). Natijada obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar aniqlanib, talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltiruvchi omillar bo'yicha yillik ish reja ishlab chiqilgan;

talaba-yoshlarni ma'naviy, jismoniy va intellektual rivojlantiruvchi omillari sifatida bo'sh vaqtni yoshlar ma'naviy madaniyati bilan bog'liq prakseologik natijadorligi orqali inson (talaba) taraqqiyotini ta'minlashga, butun umr davomida uzluksiz rivojlanish holatini yuzaga keltirishiga oid ilmiy tavsiyalardan O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi yoshlar bilan ishlash bo'limining 2021-2022-yillar faoliyat rejasini tuzishda foydalanilgan (O'zLiDeP Markaziy kengashining 2023-yil 7-martdagi 01-27/69-son ma'lumotnomasi). Natijada partiya va uning hududiy bo'linmalarining talaba-yoshlar bilan olib boradigan ma'naviy-ma'rifiy ishlari samaradorligi oshgan;

talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda bo'sh vaqtdan foydalanishga qulay shart-sharoitlar yaratuvchi boshqarish usulidan foydalanishning globallashuv sharoitida vaqtdan unumli foydalanish pragmatik jihatdan hayot sifatini madaniy makonda oshirishga xizmat qilishi va psixologik, iqtisodiy samaradorligiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining 2022-yil faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining 2022-yil 30-noyabrdagi 02-774-son ma'lumotnomasi). Natijalar Respublikamizning bir nechta oliy ta'lim

muassasalarida talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

bo'sh vaqtdan unumli foydalanishda umuminsoniy madaniy qadriyatlar davomiyligining asosi sifatida ijtimoiy makon va vaqt ta'sirida shaxsning rivojlanishi aksiologik, strukturaviy, didaktik sabablarga ko'ra ijtimoiy tartibni qabul qilish va muloqot bog'liqligi falsafiy jihatdan globallashuv sharoitida ijtimoiy zaruriyat ekanligiga oid ilmiy yangiliklardan Yoshlar ishlari agentligining 2022-yillik ish rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi «Yoshlar ishlari agentligi»ning 2023-yil 22-sentabrdagi 4-13-21-2662-son ma'lumotnomasi). Natijalardan Yoshlar ishlari agentligining yillik ish rejasi asosida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon qilingan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 146 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning “Bo‘sh vaqt tadqiqotining nazariy asoslari”deb nomlangan birinchi bobida bo‘sh vaqt, uning mohiyati, tuzilishi, funksiyalari, talaba-yoshlarning alohida ijtimoiy-demografik guruh sifatida bo‘sh vaqt byudjetidan oqilona foydalanishlarining ma‘naviy rivojlanishlaridagi o‘rni va roli yoritishga harakat qilingan.

Ma‘lumki, bo‘sh vaqt inson tomonidan ma‘lum g‘oyaga, maqsadga, jismoniy va ma‘naviy takomillashuvga va mazmunli dam olishga yo‘naltiriladi.

Bizningcha, bo‘sh vaqt kategoriyasini muayyan ijtimoiy negizda: jamiyatning har bir a‘zosining ijtimoiy rollariga bog‘liq bo‘lmagan holda qo‘yiladigan majburiyatlari, uning ma‘naviy mohiyati, ehtiyojlari va manfaatlariga bog‘liq kategoriya sifatida ta‘riflash maqsadga muvofiqdir.

Shunga ko‘ra va yuqorida keltirilgan ta‘riflarni umumlashtirish natijasida bo‘sh vaqtga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: bo‘sh vaqt mehnat faoliyati bilan band bo‘lgan va muayyan bilimlarni, kasblarni, mutaxassisliklarni egallayotgan aholi vaqt byudjetining muhim qismi bo‘lib, sarflangan kuchlarni qayta tiklash, o‘z-o‘zini har tomonlama rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan, erkin foydalaniladigan vaqtdir.

Talaba-yoshlar bo‘sh vaqtiga esa o‘qish vaqti, zaruriy vaqtdan tashqari ixtiyoriy ravishda aqliy, jismoniy va ma‘naviy rivojlanish uchun foydalaniladigan vaqt deb ta‘rif berish mumkin.

Bo‘sh vaqt tushunchasi nisbiy xususiyatga ega bo‘lib, aslida o‘quv-tarbiyaviy jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida tashkil etilishi zarur. Ya‘ni bo‘sh vaqt to‘g‘ri va oqilona tashkil etilgandagina talaba – yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishning muhim omili bo‘lishi mumkin.

Bo‘sh vaqt shaxsning erkin faoliyati, jismoniy va ma‘naviy kamoloti uchun zarur bo‘lgan haqiqiy boyligi hisoblanadi. Shu bilan birga bo‘sh vaqt jamiyatning ham boyligi bo‘lib, o‘zining har bir a‘zosining har tomonlama yetukligidan eng avvalo jamiyat manfaatdordir.

Shuning uchun bo‘sh vaqt individual xususiyatgagina ega bo‘lib qolmay, ijtimoiy-zaruriy vaqt ham hisoblanadi.

Bo‘sh vaqt o‘z-o‘zidan individual va ijtimoiy boylik bo‘lib qolmaydi, balki jamiyatning bo‘sh vaqtdan foydalanish imkoniyatlarini yaratish va har bir shaxsning undan oqilona foydalana bilish madaniyatini egallay bilganligi bilan bog‘liqdir.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan tushunchalarga nisbatan talaba-yoshlar bo‘sh vaqtini tahlil qilishda ish vaqti, (o‘qish vaqti), ishdan tashqari vaqt (o‘qishdan

tashqari vaqt), zaruriy vaqt (zaruriy vaqt, o'qishga borib kelish uchun sarflanadigan vaqt) tarzida yondashish zarur. Shunga ko'ra talaba – yoshlar umumiy vaqti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- o'qish jarayonida auditoriyada o'tkaziladigan vaqt;
- o'qishdan tashqari, ya'ni fanlarni mustaqil o'zlashtirish uchun sarflanadigan vaqt;
- shaxsiy zaruriy vaqt – o'qishga borish-kelish, ovqatlanish, hordiq chiqarish, uxlash va boshqa kundalik ehtiyojlariga sarflanadigan vaqt;

Bo'sh vaqt nazariyasining muhim muammolaridan biri uning tarkibiy tuzilishi masalasidir. Bo'sh vaqtning tarkibiy tuzilishi ushbu muammoga oid qarashlarning tahlili asosida: 1) ijod va ijodiy faoliyat; 2) jismoniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish; 3) dam olish ushbu tarkibiy qismlarni tashkil etishini ta'kidlab o'tish mumkin.

Bo'sh vaqtda amalga oshirilgan, to'g'ri tanlangan va yo'naltirilgan ijodiy faoliyatning talaba – yoshlar uchun ahamiyati quyidagilardan iboratdir.

- faoliyatning muayyan turiga ijobiy munosabat, unga qiziqish, qat'iy mashg'ullik asosida vujudga kelgan yuksak rivojlanish;
- mustaqillik, o'z-o'zini tashkil qila bilish, maqsadga yo'naltirganlik;
- bajarilgan ish natijasidan qoniqish;
- erkin faoliyat davomida paydo bo'lgan qiziqish natijasida hosil bo'lgan psixologik hissiyot;
- faoliyatning ta'lim-tarbiya, ijodiy faoliyat, o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil egallagan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasining hosil bo'lishi;

Bo'sh vaqt har bir insonning o'zi uchun sevimli mashg'uloti bilan shug'ullanishi uchun imkoniyat ham bo'lib, bunda inson o'zining jismoniy, ma'naviy, ruhiy holatini tiklashga harakat qiladi. Shu bilan birga bo'sh vaqtdan foydalanishni muayyan darajada nazorat qilish zarur. Chunki bo'sh vaqtdan foydalanishni noto'g'ri tashkil etish natijasida nosog'lom fikrga ega bo'lgan yoshlarning uyushishiga olib kelishi mumkinligi ehtimoli ham mavjuddir.

Bo'sh vaqt, hordiq, dam olish tushunchalari bugungi kunda yana qaytadan o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. U faqat talaba-yoshlarning o'zlarigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, balki davlat, jamiyat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlarni ham ifodalaydi. Bu esa ushbu faoliyatda barcha institutsional tizimlarning faol ishtirok etishining davlat tomonidan ta'minlanishini zarur qilib qo'yadi. Shuning uchun ham maxsus dastur va rejalar ishlab chiqiladi.

Ushbu ilmiy tadqiqotda qo'yilgan maqsad va vazifadan kelib chiqqan holda bo'sh vaqtning talaba – yoshlar hayotida bajaradigan rivojlantiruvchi, qayta tiklovchi, ijtimoiy, madaniy-tarbiyaviy, kommunikativ, yo'naltiruvchilik, tinchlantiruvchi funksiyalari yoritib berildi.

Bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya ishlari va unga bevosita aloqador bo'lgan bo'sh vaqtni tashkil etish samaradorligini oshirishdan iboratdir.

“Yoshlar” tushunchasiga kiruvchi guruhlarining yosh davrlari bilan chegaralanuvchi o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil va tadqiq etish orqali ulardagi alohida (individual) shaxsning o'z tengdoshlari davrasidagi

(mikromuhitdagi) o'zni va ular bilan o'zaro hamda shaxslararo munosabatlari alohida izlanish predmeti sifatida ko'rib chiqiladi.

Xuddi shu bois, talaba-yoshlar deganda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va bo'lajak mutaxassislikka oid rollarni muayyan qoida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan alohida ijtimoiy-demografik guruhni tushunish mumkin. Shuningdek, bugungi kunda yoshlarning oliy ta'lim doirasiga qamrab olinishi tobora oshirib borilishi ham o'rganilayotgan muammoning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Oliy o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari talaba-yoshlarning boshqa ijtimoiy guruhlar bilan (rasmiiy, norasmiiy) muloqotga kirishishlari uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Talaba-yoshlar aqliy mehnat bilan shug'ullanayotgan kishilarning katta qismini tashkil etuvchi ijtimoiy demografik guruh bo'lib, ularning faoliyati muayyan o'ziga xoslikka egadir. Bu o'ziga xoslik ko'pgina fanlarni qisqa vaqt ichida o'zlashtirish, o'quv jarayonida sarflanadigan muayyan vaqt, asabiy-hissiy zo'riqish kabilarda namoyon bo'ladi.

Bo'lajak mutaxassislikka xos bo'lgan muayyan malaka va ko'nikmalarning, fe'l-atvorning shakllanishi talabalik davri bilan bog'liq bo'lganligi, uning kelajakdagi mehnat faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatganligi uchun talaba-yoshlar vaqt byudjetini o'rganish dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqadi.

Vaqt byudjetini o'rganish uchun 2022-yilda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Madaniyat va san'at muassasalarini boshqarish", "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" mutaxassisliklari ikkinchi va to'rtinchi kurs talabalari o'rtasida so'rov o'tkazildi. So'rov o'tkazilgan talabalarning o'rganadigan fanlari bo'yicha o'quv dasturlari o'rtasidagi farq katta bo'lganligi uchun ularning bo'sh vaqtlaridan qanchalik samarali foydalanishlarini o'rganish muammoni hal etishda katta yordam berishi mumkin edi.

O'quv semestri o'rtasida anketa so'rovida qatnashgan talabalar haftaning har kunida kun davomidagi faoliyatlarini maxsus kundalikka qayd etib bordilar. Tadqiqotda har bir kurs guruhlaridagi talabalarning 54 foizi ishtirok etdi.

Ma'lumki, talabalarning bir kecha-kunduzdagi 24 soatlik vaqt byudjeti bir hafta davomida 168 soatni tashkil etadi.

Ko'pgina tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, insonga to'liq dam olishi va kun davomida charchoqni his qilmasdan faoliyat ko'rsatishi uchun 8 soatlik uyqu yetarli bo'lib, bu haftalik vaqt byudjetning taxminan 33 foizini tashkil etadi. Talabalar bunga qo'shimcha ravishda yana 4-6 foiz vaqtlarini uyqu bilan o'tkazadilar. Dam olish kunlari esa uyqu bilan o'tkaziladigan vaqt 11 soatni tashkil etadi.

Agar bir kecha-kunduzdagi 24 soatlik vaqt byudjetining 8 soati uyqu, 6 soati o'qish vaqti, taxminan 4 soati ertalabki nonushta, tushlik, kechki ovqat, shaxsiy gigiyenaga ajratilgan vaqtdan iborat bo'lsa, ulardan tashqari bo'sh vaqt 6 soatni tashkil etadi.

Agar bugungi kunda ko'pgina oliy o'quv yurtlarida 5 kunlik haftasiga o'tganligi hisobga olinsa, ushbu bo'sh vaqt 6-8 soatni tashkil etadi.

Demak, 6-8 soatlik bo'sh vaqtni fanlar bo'yicha mustaqil tayyorgarlik, badiiy adabiyotlar o'qish, kompyuterda ishlash, sport bilan shug'ullanish, muzey, teatr, kinoteatrlarga borish singari aqliy ma'naviy va jismoniy rivojlanish uchun rejali taqsimlash mumkin.

Hozirgi vaqtda vaqt byudjeti muammolarini o'rganish intensiv tarzda olib borilmoqda. Bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalana olmaslik talabalarning o'quv materiallarini yomon o'zlashtirishlari tufayli bizning davrimizda juda ham muhim bo'lgan yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash ishiga to'sqinlik qiladi. Buning uchun o'quv jarayonini tashkil etish va talabalarning vaqt byudjetini shakllantirish masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur.

Dissertatsiyaning "Talaba-yoshlar bo'sh vaqtini tashkil etishning ilmiy-amaliy masalalari" deb nomlangan ikkinchi bobida ular bo'sh vaqtini tashkil etishning hozirgi ahvoli, tajribalari, ma'naviyatini yuksaltirishda bo'sh vaqtdan foydalanish madaniyatini shakllantirish zaruriyati va imkoniyatlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

Talaba-yoshlarning madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish, ma'rifiy-mafkuraviy bilimlarini hosil qilish hozirda juda ham zarur bo'lib qolmoqda. Chunki, dunyoning tobora globallashtirib borayotganligi sababli turli tomonlardan "ommaviy madaniyat" deb nomlangan hodisa bizning yurtimizga ham kirib kelmoqda. Oliy o'quv yurtlarida muntazam o'tkazilib kelinayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar talaba-yoshlarning ma'naviy yuksalishida asosiy omillardan biri bo'la oladi, chunki ular o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etadi, amaliy tarzda o'z ko'zi bilan ko'radi, fikrlaydi va mazmunan anglab yetadi.

Ma'lumki, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini oqilona tashkil etish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning muayyan tizimi yaratildi. Barcha oliy o'quv yurtlarida bo'sh vaqtda talaba-yoshlarning bilim va saviyasini, dunyoqarashini kengaytirish, faol dam olishini tashkil etish maqsadida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, bir qator tanlovlar, sport musobaqalari o'tkazib kelinmoqda.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini, ularning hayotiyligi va ta'sirchanligini yanada oshirish, ma'naviyatning ma'no-mohiyati, milliy ma'naviyatimizning qadimiy ildizlari haqida talaba-yoshlar o'rtasida vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning o'rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning mohiyatini tushuntirish, yurtimizga qarshi qaratilgan g'oyaviy va axborot xurujlari, ularning ortida turgan kuchlarning g'arazli maqsadlarini fosh qilish orqali hushyorlik va ogohlikka da'vat etishda ham ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar katta ta'sir kuchiga egadir.

Lekin, afsuski, bugungi kunda madaniyat muassasalari va oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan barcha ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy tadbirlarni ham samarali tashkil etilyapti deb bo'lmaydi.

Bunda gap talaba-yoshlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda bugungi kundagi vaziyatni to'liq baholay olmayotganligimiz haqida ketmoqda. Shunday

ekan ma'naviy shakllanish jarayonini to'g'ri belgilamas ekanmiz, bunday vaziyatda ularning virtual dunyoga kirib qolish ehtimoli yanada ko'proq bo'ladi.

Talaba-yoshlar bilan ishlashda ularni mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda uning tizimiga kiruvchi unsurlarni aniq hisobga olish zarur. Mafkuraviy immunitet tizimining eng asosiy va birinchi unsuri voqelikni obyektiv aks ettiruvchi, millat va insoniyat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan bilimlardir. Mafkuraviy immunitetning ikkinchi unsuri obyektiv bilimlar asosida shakllangan baholar va qadriyatlar tizimi bo'lib, ular ushbu immunitetning imkoniyatlarini belgilaydi. Mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim unsuri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi mo'ljal va maqsadlar tizimi bilan bog'liqdir. Ana shunday tizim mavjud bo'lmasa alohida inson, jamiyat yoki millat goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berishi qiyin bo'ladi;

- talaba-yoshlar ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun ularning o'z ma'naviy bilim saviyasini oshirishga bo'lgan ehtiyojini, didini, uning darajasini, nimani o'qishga, tomosha qilishga, eshitishga bo'lgan xohish-istagini chuqur o'rganish muhimdir. Ushbu xohish-istaklarni hisobga olish orqaligina ularga taqdim etish zarur bo'lgan bilimlarni tavsiya etish, talab va istaklarni e'tiborga olish va qondirish mexanizmini shakllantirish mumkin;

- ma'naviy ehtiyojni qisqa muddatda shakllantirish mumkin emas. Bunda u yoki bu tadbirning mohiyatini tashkil etuvchi g'oya masalasiga ko'proq e'tibor berish lozim.

Bizningcha, bugungi kunda ushbu tadbirlar shunchaki, bo'sh vaqtni tashkil etish, mazmunli hordiq chiqarish, kerakli axborot bilan ta'minlash bilangina cheklanib qolmasdan, talaba-yoshlarni ma'naviy – axloqiy ruhda tarbiyalash, bilim berish orqali ma'rifiy dunyoqarashni shakllantirishga qat'iy yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Jamiyat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ma'naviy yuksalishi uchun har bir fuqaroning o'z bo'sh vaqtidan samarali foydalana bilishidan manfaatdordir. Bu birinchi navbatda jamiyatning eng faol va uyushgan ijtimoiy-demografik guruhi bo'lgan talaba – yoshlar hayoti bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham bugungi kundagi mavjud imkoniyatlar sharoitida ularning bo'sh vaqtini tartibga solish muammosiga to'xtalib o'tish zarur.

Talaba – yoshlarning bo'sh vaqtini tartibga solish tizimi bo'sh vaqt madaniyatini tarbiyalashni ham o'ziga qamrab oladi. Bizning fikrimizcha, ushbu yo'nalishda eng avvalo, shakllangan ehtiyojlarni qondirish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, hamda talaba-yoshlar va ularning madaniyatining barqaror darajalariga mos keluvchi yangi ehtiyojlarni shakllantirishni rag'batlantirishi zarur.

Bo'sh vaqt madaniyati – insonning bo'sh vaqtdagi turli-tuman shakllar, usullardan foydalangan holda o'z ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beruvchi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatda qatnashuvning sifat tavsifidir.

Shaxsiy va ijtimoiy hayotda, ishlab chiqarishda va turmushda vaqtning va bo'sh vaqtning qadriga yetish, talaba-yoshlarda bo'sh vaqtdan foydalanish

madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy – psixologik asoslarini yaratish doimo muhim vazifa bo‘lib kelgan va jamiyat taraqqiy etgani sari bo‘sh vaqtdan foydalanish madaniyatiga nisbatan talablar ham oshib bormoqda.

Shuning uchun ham bo‘sh vaqt madaniyatini tahlil qilish bir tomondan, talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtdagi faoliyatida yuz berayotgan sifat o‘zgarishlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularning bo‘sh vaqtdan foydalanishlaridagi aniq maqsadlarini shakllantirish bilan bog‘liqdir.

Talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtdan foydalanish madaniyatini shakllantirish jarayoni qo‘yidagi bosqichlardan iboratdir:

- birinchi bosqich, strategik bo‘lib, bo‘sh vaqtda talaba-yoshlarning ijtimoiy – madaniy ijod bilan shug‘ullanishga intilishlarini muntazam rivojlantirib borish;

- ikkinchi bosqich taktik bosqich bo‘lib, talaba-yoshlarning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda bo‘sh vaqtdan foydalanishning individual va ijtimoiy ahamiyatli shakllariga kengroq jalb qilish;

- uchinchi bosqich, jarayonli-texnologik bosqich bo‘lib, talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtini tashkil etish va tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatning moddiy-texnik, tashkiliy-uslubiy, kadrlar bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatning masalalarini hal etish.

Birinchi bosqich doirasida talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtlarida ijtimoiy-madaniy ijodiy faoliyatda qatnashishlari qadriyatli yo‘nalishlarning muayyan tizimining paydo bo‘lishiga olib keladi. Bular talaba-yoshlar bo‘sh vaqt madaniyatining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan obyektiv omillar majmuasini tashkil etadi.

Bo‘sh vaqtda faoliyat ko‘rsatishning turli ko‘rinishlariga bevosita aloqador bo‘lgan ikkinchi bosqich doirasida talaba-yoshlarning qiziqishlari, motivlarining tadqiq qilinishi ularning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatda bevosita qatnashishlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’lumki oila, maktab, yoshlar ittifoqi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari singari ijtimoiy institutlarning ijtimoiylashtiruvchilik vazifasini bajarishlaridagi rolining zaiflashuvi va bo‘sh vaqtni o‘tkazishning yangi shakllari, turlari paydo bo‘layotganligi, ularni boshqarish usullarining ishlab chiqilmaganligi natijasida “Qanday boshqarish kerak?” degan savol ko‘ndalang bo‘lmoqda.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra bo‘sh vaqtdan foydalanish madaniyati eng avvalo, insonning ichki madaniyati bo‘lib, uning ehtiyojlari, qiziqishlari, maqsadi, didi, ko‘nikmalari, aql-idroki singari shaxsiy sifatlarning majmuasidan tashkil topadi va ular bo‘sh vaqtni maqsadli, foydali, mazmunli o‘tkazishga imkon beradi¹⁰.

Dissertatsiyaning “Bo‘sh vaqt jarayonida talaba-yoshlarni ma’naviy yuksaltirish omillari va usullari” deb nomlangan uchinchi bobida talaba-yoshlarni ma’naviy yuksaltirishda bo‘sh vaqtdan foydalanishning asosiy omillari, shart-sharoitlari, shakllari, bo‘sh vaqtni oqilona tashkil etishning asosiy muammolari va istiqbollari bilan bog‘liq masalalar tadqiq qilingan.

¹⁰ Норқулов Д.Т. Вақт жамият мадания – маънавий раванки омили: Назария ва амалиёт. ф.ф.доктори унвонини олиш учун тайёрлаган диссертацияси Тошкент, 2000 йил. 64-бет

Bo'sh vaqt talaba-yoshlar ma'naviy yuksalishi va o'z-o'zlarini namoyon qilishlarining muhim omilidir. Bo'sh vaqtning hajmi va ichki tizimini o'rganishda uning ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlari va omillarining ta'sir ko'rsatish darajasini aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

“Omil” – “faktor” (lotincha – faktor – “qilmoq”, “ishlab chiqarmoq”), ish, harakat, qandaydir voqea – hodisa, jarayon, ishlab chiqarishning yuzaga chiqishi, sodir bo'lishning harakatlantiruvchi kuchi, sababidir¹¹.

Omil va shart-sharoit sinonim, ya'ni bir xil tushunchalar emas. Chunki shart-sharoit bevosita muayyan hodisani keltirib chiqaruvchi sababdan farqli holda hodisaning kelib chiqishi, mavjudligi, rivojlanishi uchun muhit yaratadi.

Talaba-yoshlar bo'sh vaqti mazmuni va tarkibiga ta'sir o'tkazuvchi shart-sharoitlar va omillarni ko'rib chiqish bilan birga har bir individning asosiy faoliyati bilan birga o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra taqozalanuvchi asosiy shakllarini ham o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Toshkent shahridagi bir nechta oliy o'quv yurtlarining talabalari o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovnomalarda 938 nafar talabalar ishtirok etdi. “Bo'sh vaqt nima uchun zarur?” degan savolimizga ishtirok etgan respondentlarning javoblari 3.1-rasmda aks ettirilgan.




3.1-rasm. Respondentlarning javobi natijalari

